

JALOLIDDIN RUMIY VA UNING MA'NAVIY MEROSSI HAQIDA

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li - Jizzax davlat pedagogika

universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Jalilov Bekzod Nozim o'g'li - Jizzax davlat pedagogika

universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIII asrda yashab o'tgan, tasavvuf tariqatida o'zining munosib o'rniiga ega bo'lgan Jaloliddin Rumiy va uning faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Rumiy she'riyati, asosan, ilohiy ishq bilan bog'langan. U o'zining barcha asarlarida yer-u ko'kning sohibi bo'lmish Allah va uning zamindagi xalifasi hazrati insonni ulug'laydi.

Kalit so'zlar: Bahouddin Valad, Najmuddin Kubro, Muhammad Xorazmshoh, Damashq, Halab, Shom va Bag'dod madrasalari, Farididdin Attor va Shams Tabriziy, "Masnaviyi ma'naviy", Rumiy hikmatlari.

Vatanimiz tarixidagi uyg'onish davri adabiyotlarda "Renessans" atamasi bilan ham yuritaladi. Bu davrda aniq, tabiiy, ijtimoiy fanlar sohasida bir qator olamshumul asarlar va tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, bu voqeotlar keyingi davr taraqqiyot zamirini yaratib bergen. Bu davrda dunyoviy fanlar qatori diniy ta'limot sohasining ham rivoji kuzatilgan bo'lib, tasavvuf tariqati shakllanib, rivojiana boshlaydi. Ushbu maqolada XIII asrda yashab o'tgan shoir va mutafakkir, tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi, arab, fors va turkiy tillarida ijod qilgan arbob Jaloliddin Rumiy va uning faoliyati haqida so'z boradi.

Jaloliddin Rumiy 1207-1273-yillarda yashagan bo'lib, uning otasi Bahouddin Valad o'z davrida tasavvuf ta'limoti va shariat ilmining bilimdoni sifatida tanilgan yirik alloma, mutasavvuf donishmand, yirik xatib bo'lgan. To'liq ismi Muhammad Bahouddin Valad ibn Husayn Xatibiy Balxiy bo'lgan alloma asli urganchlik bo'lgan va taqdir taqozosi bilan Balxga kelib qoladi [www.wikipedia.uz internet sayti].

Bahouddin Valadning otasi ham ulamo bo'lib asarlar yozib qoldirgan. Bahouddin Valadning otasi va onasi Xorazmshoh va Xuroson shohlari avlodi hisoblanadi. Bahouddin Valad shuningdek Najmiddin Kubroning eng yaxshi sara shogirdlaridan biri bo'lgan. Bahouddin Valad bir qancha sabablarga ko'ra Balxdan ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Bunga sabablar esa Bahouddin Valad va Faxriddin Roziyning diniy masalalarda bir-biriga qarshi ekanligi edi. Ustigauustak Muhammad Xorazmshoh ham Faxriddin Roziyini qo'llab-quvvatlovi Bahouddin Valadni kuchsizlantirgan. Bundan tashqari, Chingizzon qo'shinlari tobora Xorazmga yaqinlashib kelayotgan edi. Bahouddin Valad mo'g'ul qo'shinlari Xorazmga bostirib kirishlarini sezib Balxni tark etishga majbur bo'lgan va oilasi bilan hijrat qilgan [Izbullayeva G. V. 2015. 48-62-b.].

Shu asnoda, Jaloliddin Rumiyning qiziqarli hayot faoliyati boshlanib, u Damashq, Halab, Shom va Bag'dod madrasalarda tahsil olgan va o'sha yerda mudarrislik qilgan. Makkaga hijrat qilgan Rumiyo yo'lida Fariddin Attor bilan uchrashgan. Shuningdek, ilm yo'lida Shayx Shams Tabriziyidan 3 yil tahsil olgan. Rumiyning o'zi ham bu ikki ulug' ustozi haqida shunday deydi: "Agar Attor menga ruh bahsh etgan bo'lsa, Shams Tabriziy menga tilsim kalitini tutqazdi" [www.wikipedia.uz internet sayti] deya e'tirof etgan.

Keyingi davrlarda faoliyat ko'rsatgan buyuk shoir va allomalar bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Badulqodir Bedil, Hofiz Sheraziylar Mavlono Rumiyni o'zlariga ustoz deb bilishgan.

Jaloliddin Rumiy 12 yoshida Balxdan ko'chib ketgan. Keyinchalik Balxiylar oilasi Turkiyada qo'nim topgan. Rumiy otasiga Balxdan Hajga borishida hamrohlik qilgan. Jaloliddin Rumiy 18 yoshida harbiyning qizi bo'lgan Go'har xotunga uylangan. Go'har xotundan Sulton Valid va Alouddin Muhammad ismli ikki o'g'il ko'rigan. So'ng ikkinchi xotinidan ham yana ikki farzand ko'rigan.

Jaloliddin Rumiy diniy ulamo sifatida 400 dan ortiq shogird tarbiyalagan. Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari "Forsiy Qur'on" nomi bilan ham sharq-u g'arbda shuhrat qozongan[Jaloliddin Rumiy. 2011. 7-11-b.].

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Jaloliddin Rumiy o'zidan beshta muhim va qimmatbaho asar qoldirdi. Bular quyidagilar:

1. "Devoni kabir", "Devoni shamsi tabriziy", "Devoni shamsul haqoyiq" degan nomlar bilan mashhur devon. Bu devon g'azal va ruboilyardan iborat.

2. "Masnaviyi ma'naviy" - 25700 baytdan iborat bebahoh tasavvufiy-ishqiy asar. So'nggi yillarda taniqli o'zbek shoiri Jamol Kamol tomonidam I-II - jildlari, shoir Asqar Mahkam tomonidan I-jildi o'zbek tilida nashr etildi [Jaloliddin Rumiy hikmatlari. 2014.].

3. "Fiyhi ma fiyhi" ("Ichingdagi ichingdadir") - Mavlononing suhbatlaridan iborat falsafiy kitob bo'lib, ushbu asar 1998-yilda Toshkentda o'zbek tilida nashr etilgan.

4. "Mavoizi majolisi sab'a" - bu asar Rumiyning yetti o'git va pand-nasihatlaridan iborat.

5. "Maktubot" - Mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tashkil topgan to'plam [Izbullayeva G. V. 2015. 26-27-b].

Jaloliddin Rumiy ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta'sir quvvatiga ega.

Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyning ayrim hikmatlaridan misollar keltiramiz:

- Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.
- Keyin pushaymon bo'lmaslik uchun: xursandchililingda so'z berma, xafaliringda javob berma, jahling borida qaror chiqarma.
- Ming yil o'qisamu, mendan «nimani bilding», deb so'rasalar, «haddimni bildim» deyman.
- Ishq azobi tortmagan yurak yo telbaning, yo murdaning yuragjdir.
- Odamlar suratini bezatsa, sen siyratingni beza. Odamlar boshqalar aybidan so'z ochsa, sen o'z qusuringni o'yla.
- Modomiki, hammaning gunohini bekitolmaysan, o'z ko'zingni yumib qo'ya qol.

- Dili va tili bir bo‘lmagan inson yuz tilni bilsa ham tilsiz sanalgay.
- Senga qilgan nohaq ishlari sabab, hech kimdan g‘azablanma. Aksincha, xiyonat qilganlarga tashakkur ayt, sadoqatni o‘rgatganlari uchun...
- Hayot shu sababli yana ham go‘zal, qoradan oqni ajratib bergani uchun...

[www.hikmatlar.uz. internet sayti]

Ushbu hikmatlarda kishining qanday yashashi, ezgulik, qalb go‘zalligi, iymon-e’tiqod mezonlarining qay darajada bo‘lishi kerakligi, umr mazmuni haqida ibratli so‘zlar, fikrlar keltirilgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiy 1273-yil 17-dekabrda Ko’niyada vafot etgan. Sayyoohlar, she’riyat va adabiyot ixlosmandlari uchun katta qiziqish uyg’otadigan joy bo‘lgan Mavlono Rumiy maqbarasi Antaliya va Anqara o’rtasidagi Ko’nya shahrida joylashgan. Maqbara balandligi 1016 metr bo‘lgan tepalikda joylashgan bo‘lib, u yerda Rumiy qabri ustida firuza konussimon gumbaz o’rnatalgan. 1927-yilda qabr Mavlna muzeyi nomi bilan mashhur muzeyga aylantirildi. Mavlono xotirasiga har yili 7-dekabrdan 17-dekabrgacha Ko’nyada maxsus marosim o’tkaziladi [www.wikipedia.uz internet sayti]. Bu marosim qaysidir ma’noda Rumiyning nikoh kechasi sifatida tanilgan va uning Hudo bilan aloqasini nishonlaydi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Mavlono Jaloliddin Rumiy buyuk shoir va tasavvuf olim sifatida o’zidan keyin buyuk va o’chamas iz qoldirgan. Uning har bir ishida hikmat qidirishi va to’g’ri yondashuvi mavlonoga hurmatni yanada oshiradi. Uning ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta’sir kuchiga ega.

Rumiy hattoki yoniga kelgan nasroniy rohibga chiroyli odobi orqali iltifot va bag’rikenglik qilib, nasroniy rohibni Islom dinini qabul qilishiga sababchi bo’ladi. Mavlononing qabriga hanuzgacha turli din vakillari ziyoratga keladi. Chunki Rumiy diniy bag’rikenglik bo‘yicha namuna bo‘lgan. Mavlononi hayotligi chog’idayoq olim-u shoirlar, shoh-u gadolar tan olishgan. Rumiyning tasavvufi, hikmatlari, she’rlari, asarlari dunyo tamadduni uchun muhim qo’llanma va manba bo‘lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Jaloliddin Rumiy. Qalb ko'zingni och. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sabohat Bozorova. Toshknet. 2011.
- 2.Izbullayeva G. V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi. Toshkent. 2015.
- 3.Jaloliddin Rumiy hikmatlari. Muslimbek Musallam tarjimalari. Xurshid davron kutubxonasi. 2014. www.kh.davron.uz. internet sayti
4. www.hikmatlar.uz. internet sayti
5. www.wikipedia.uz internet sayti